



UDK: 378:37.013:379.85

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651175>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TURIZM FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR TOURISM ACTIVITIES

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: marayimova.kibriyoxon@gmail.com / (+998-93) 972-53-73

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-8305-8285>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada turizm tushunchasi, madaniy turizm va muzey turizmi mohiyati, turizmni rivojlantirish omillari, turizm va muzey hamkorligi, madaniy turizmni rivojlantirishda muzeylarning ahamiyati yoritib berilgan. Turizm faoliyatining tarbiyaviy vazifalari, ta'lim turizmi, ta'lim ekskursiyalari mohiyati hamda pedagogika universitetlarida bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlash bo'yicha horijiy tajribalar va bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashning uch blokdan iborat pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan. Ziyorat va turizmni bo'lajak o'qituvchini ruhiy-psixologik, estetik tarbiyalashdagi vazifasi alohida ta'kidlangan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida turizmning estetik tarbiya xususiyatlari ma'lum ma'noda uning asosiy vazifalarini ham belgilab berilgan. Bo'lajak o'qituvchilar uchun turizm faoliyati madaniy qadriyatlarni tarqatishda, ularning tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirishda, har tomonlama rivojlangan insonni tarbiyalashda o'ziga xos tarbiyalovchi funktsiyani bajarishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Turizm, ta'lim turizmi, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim dasturlari, madaniy turizm, turizm va muzey hamkorligi, madaniy meros.

Аннотация.

В данной статье рассмотрено понятие туризма, сущность культурного туризма и музейного туризма, факторы развития туризма, сотрудничество

туризма и музеев, значение музеев в развитии культурного туризма. Объяснены образовательные задачи туристской деятельности, сущность образовательного туризма, познавательных экскурсий, зарубежный опыт подготовки будущих учителей к туристской деятельности в педагогических вузах, а также трехблочные педагогические особенности подготовки будущих учителей к туристской деятельности посредством музейной педагогики. . Подчеркивается роль паломничества и туризма в духовно-психологическом и эстетическом воспитании будущего учителя. Также определяются в определенном смысле особенности эстетического воспитания туризма в деятельности будущих учителей и его основные задачи. Для будущих учителей туристская деятельность основывается на уникальной образовательной функции распространения культурных ценностей, изменения их мышления и мировоззрения, воспитания всесторонне развитой личности.

Ключевые слова: *Туризм, познавательный туризм, профессиональная подготовка, образовательные программы, культурный туризм, туристско-музейное сотрудничество, культурное наследие.*

Abstract.

This article describes the concept of tourism, the essence of cultural tourism and museum tourism, tourism development factors, tourism and museum cooperation, the importance of museums in the development of cultural tourism. The educational tasks of tourism activities, the nature of educational tourism, educational excursions, and foreign experiences on the preparation of future teachers for tourism activities at pedagogical universities, and the three-block pedagogical features of preparing future teachers for tourism activities through museum pedagogy explained. The role of pilgrimage and tourism in the spiritual-psychological and aesthetic education of the future teacher is emphasized. Also, the characteristics of the aesthetic education of tourism in the activities of the future teachers are defined in a certain sense and its main tasks. For future teachers, tourism activity is based on the unique educational function of spreading cultural values, changing their thinking and worldview, educating a well-rounded person.

Key words: *Tourism, educational tourism, professional training, educational programs, cultural tourism, tourism and museum cooperation, cultural heritage.*

KIRISH

Insonlarning o'zga millat va elatlarning yashash tarzi, urf-odat va an'analari, tarixi va madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish, ularni sayohatga undovchi asosiy motivlardan biri hisoblanadi. Bugun xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlik, har sohada o'zaro hamkorlik, dam olish, hordiq chiqarish va turizm uchun yaratilayotgan qulaylik

va imkoniyatlar insonlarning sayohatga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Butunjahon turizm tashkilotining bergan statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda dunyo bo'ylab sayohat qilgan xalqaro turistlar sonining 1 milliard 235 million kishiga yetganligi hamda bu ulushning 23 foizini yoshlar tashkil etganligi turizm allaqachon turistlarning barcha segmentatsiyasini qamrab olganligidan dalolat beradi. "Shu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga yetkazish lozim" ya'ni turizmning nafaqat milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni, balki uning ijtimoiy faoliyat va ong shakli sifatidagi madaniy xususiyatlarni xalqimiz ongida qaror toptirish muammosini tadqiq qilish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, "turizm respublika iqtisodiyotining strategik sektoriga" aylanganligi belgilanib, biz tadqiq qilayotgan muammoning yechimi asosida "turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm madaniyatini yaratish" davlatimiz va jamiyatimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi paytda turizm jamiyat hayoti mazmunining madaniy shakllarini o'zgartirib yuboruvchi faol hodisaga aylanib bormoqda. Shunga mutanosib ravishda ilmiy dunyoqarashda turizm fenomenini tadqiq qilish sezilarli jonlandi. So'nggi yillarda ushbu faoliyat turiga iqtisodiy, sportga oid, etnografik, ekologik mazmunini o'rganishga bag'ishlangan asarlar paydo bo'ldi. Shuning bilan birga, bu faoliyatning pedagogik va ta'lim-tarbiya imkoniyatlarini yanada puxta tadqiq qilish ehtiyoji ortmoqda.

Turizm faoliyatining tarbiyaviy vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin: altruistik hayotiy pozitsiyani tarbiyalash; shaxs barqarorligi, shaxs mustaqilligi, qiyinchilikka bardosh berish qobiliyati, qat'iyatlilik va iroda mustahkamligi; ochiqlik, insonlarga hurmat. Ushbu maqsadni amalga oshirish talabalarning shaxsiy harakatlarini tahlil qilish, o'z-o'zini va o'rtoqlarining harakatlarini baholash, o'zini o'zi bilishga intilish qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ro'y beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda turistik faoliyatning pedagogik-psixologik asoslarini psixologik ta'sir ko'rsatish bilan birga ta'limiy-tarbiyaviy funksiyani bajarish orqali ularda turistik savodxonlik, turistik salohiyat, turistik faollik tushunchalari bilan bog'liq tushunchalar ekanligi namoyon bo'ldi. Shuningdek, turizm insonning o'zi yashab turgan joyini ma'lum muddatga tark etishi orqali sayohatlar, sarguzashtlar, davolanish, sport bilan shug'ullanish, tijorat maqsadlarida sayohat qilish, ziyorat qilish bilan izohlanishi asoslandi.

Bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashning uch blokdan iborat pedagogik xususiyatlari aniqlashtirildi:

birinchi – kompleks yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayoniga turistik faoliyatiga tayyorlashning dual tizimni joriy etish. Mazkur jihat talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish,

qo'shimcha ish bilan ta'minlash, o'lkashunoslik va turistik faoliyat bilan shug'ullanishga internal motivatsiyani qaror toptirishga xizmat qiladi;

ikkinchi – talabalarni turizm faoliyatiga tayyorlashning asosiy vositasi sifatda muzeylarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish. Mazkur jarayonda turli muzeylarning o'ziga xos imkoniyatlarini modulli ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlash, virtual o'qitishning qo'shimcha funksiyalarini kuchaytirish talab etiladi;

uchinchi – talabalarning akademik mobilligini ta'minlash, ya'ni ayriboshlash dasturlari asosida turdosh oliy ta'lim muassasalarida qo'shimcha, shu jumladan, muzey pedagogikasi, muzey menejmenti, madaniy turizm, muzey predmetlari ekspertizasi, konservatsiyalash va ta'mirlash kabi yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlash.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularga psixologik ta'sir ko'rsatish va bu orqali ularda mazkur faoliyatga aksiologik munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Turizmning aksiologik xususiyati uning madaniyati va ijtimoiy-psixologik mazmunini belgilaydi. Ushbu faoliyatning madaniy va gedonistik, evdomonistik xarakteri bo'lajak o'qituvchining jismoniy, estetik, intellektual sohasiga ijobiy ta'sir etadi. Bu esa turizm faoliyatini milliy qadriyatlarga rioya qilish bilan birga, shaxsning jamiyatda ijtimoiy mavqeini belgilash omiliga aylantirmoqda.

Turizmning aksiologik xususiyati ham jamiyatda madaniy turizmni rivojlantirish va turistik qadriyatlarga hurmat munosabatini shakllantirishdir. Madaniy tupizm – faol dam olishning bip tupi, ma'naviy ehtiyojlapni qondipish uchun sayohat, shu jumladan mintaqaning madaniy qadriyatlari va tabiati bilan tanishish maqsadida sayohat qilish; bo'sh vaqtdan foydalanish usullaridan biri, jismoniy kuchni tiklash va sog'lomlashtirish bilan shaxsni ma'naviy boyitishni birlashtirishga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda butun dunyo xalqlari madaniyatlari almashinuvi jarayonlari qadriyat sifatida e'tirof etib borilayotgan faoliyatning yangi shakllari bo'lgan ta'lim, turizm, shou-biznes, ommaviy madaniyat orqali yoyilmoqda. B.N.Voronsovning fikricha, jamiyatda bunday jarayonlarning jadallashishi industrial jamiyat rivojlanishi sabablarini keltirib chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Madaniyatlar almashinuvi davrida bo'lajak o'qituvchilarda "turistik savodxonlik"ni yuksalganligi sayohatlar davrida o'z qat'iy pozitsiyasida turishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqning turistik savodxonligi yuksakligi orqali progressiv jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solib turilishi hamda qadriyatlarini saqlab qolish, tartibga solinishini ta'minlaydi. Turist sayohat davomida turli xalqlar madaniyati bilan tanishadi, tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladi, shu sabab turistik savodxonlik shaxsda geografiya, biologiya, tibbiyot, tarix, geologiya, iqtisod, adabiyot, ma'naviyat va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim hamda malakalarini qo'llash imkonini yaratadi.

Tadqiqotlarda ziyorat va turizmni bo'lajak o'qituvchini ruhiy-psixologik, estetik tarbiyalashdagi vazifasi alohida ta'kidlangan. Ziyorat diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan insonning turli muqaddas makonlarga sayohatidir. Ziyorat estetik hissiyot orqali insonni ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishiga ko'maklashadi. Insonlar muqaddas joy va napsalar bilan tanishadilar, ulardan ma'naviy ozuqa oladilar, har xil hodisalarga guvoh bo'ladilar. Bunday faoliyat ziyoratchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va barkamollikka erishishiga ko'maklashadi.

Umuman olganda, bo'lg'usi kadrlarni estetik munosabatga faol kirishuvchi shaxs sifatida tarbiyalash, estetik dunyoqarashni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Estetik dunyoqarashni shakllantirishda turizm faoliyatining ta'siri yuqori hisoblanadi. Talabalar tabiatga sayohat qilishi natijasida go'zallikdan, ulug'vorlikdan bahramand bo'lish bilan birga, uni nafosatli tarzda o'zlashtiradi. Turizmni faoliyatini baholashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni ma'lum turdagi turizm uchun funksional muvofiqlikni hisobga olgan holdagi texnologik baho, farovonlik darajasini ko'rsatuvchi fiziologik baholash, estetik tarbiya ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida turizmning estetik tarbiya xususiyatlari ma'lum ma'noda uning asosiy vazifalarini ham belgilab beradi. Bu vazifalar quyidagilar:

Forig'lantirish – turizmning asosiy vazifasi. Sayohat inson qalbini tozalaydi – poklaydigan ma'naviy jarayon vazifasini o'taydi. Safar jarayoni insondan yomon axloqdan voz kechib xushfe'llik fazilatlarini shakllantiradi. Shu ma'noda bo'lajak o'qituvchilarni turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularning ruhiyatiga psixologik ta'sir ko'rsatish mumkin. Ya'ni ularni qalbini tozalashi, forig'lantirishi va ularning qalbiga ulug'vor tuyg'ularni joylashi mumkin. Bu, ayniqsa diniy masalalarga oid muqaddas joylarga sayohat chog'ida faollashadi.

Tarbiyaviylik vazifasi. Tarbiyachi sifatida turizm inson hissiyotlariga ta'sir qiladi, estetik kechinmalar uyg'otadi va shu orqali ezgulikdan yovuzlikni farqlay bilish ko'nikmasini shakllantiradi. Turizm insonni dunyoqarashini o'sishiga, ma'naviy yetuklikka erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Demak, bo'lajak o'qituvchilar uchun turizmning tarbiyaviy funksiyasi ularda bilim va tajribalar ortib boradi, boshqa millat va jamiyat kishilarining urf-odatleri va tarbiyaviy mezonlarini o'rganadi.

Huzurbaxshlik – turizmning ijtimoiy vazifasi. Turizmning estetik ehtiyoj ekanligini alohida ta'kidlash mumkin. Huzurbaxshlik vazifasi turizmning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlaydi, uni ajdoddan avlodga asrab yetkazadi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularda hayotga nisbatan kuchli motivatsiya, ishga nisbatan intilish va huzurbaxshlikni namoyon qiladi.

Turizm talabalarning hissiy va intellektual qobiliyatlari, ularning hayot to'g'risidagi tasavvurlari, nafaqat tabiiy zaruriyat, balki go'zallik qonunlari asosida yaratilgan real narsa-hodisalar bilan birgalikda xulq-atvor shakllarini o'z ichiga olgan

murakkab tizimdir. Hozirgi davrda turizm talabalarining dunyoqarashini rivojlanish natijalarini aks ettirish shakli, balki jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni, ularning ahamiyati to'g'risidagi umumbashariy g'oyalarni aks ettirishning o'ziga xos o'zgarma modelidir.

Texnogen sivilizatsiya talabalarining jamiyatdan zerikishlariga kasbiy, ijtimoiy faoliyatini zaiflashishiga olib keladi. Barcha narsani muhayyo qiladigan turmush tarzi, bir xillik insonning xayotdan zerikishiga olib kelishi mumkin. Belgilangan hayot tarziga ega bo'lgan shaharning maydoni, reklama xabarlarining kuchli konsentratsiyalangan oqimi, odamlar ongini axborot bilan "to'ldirish" natijasida inson o'zini bunday shahar muhitidan aqliy siqib chiqarishga intiladi. Boshqa muhitda bo'lish nafaqat yangi narsalarni o'rganish insonning kundalik hayotidagi shahar makonidan sifat jihatidan farq qiladigan notanish makonni ko'rishga ehtiyoj sezadi. Sayyohning ma'lum bir masofani bosib o'tishi muhim hissiy-emotsional ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi, sayyoh bu jarayonlarda estetik zavq orqali tarbiyalanadi. O'zbekiston turistik hududlarida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona shaharlarida sayyohlar uchun o'zbek xalqining folklor tomoshalar namoyish etiladi. Bu nafaqat chet ellik sayyohlarni qiziqtirish, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda qadriyatlarni saqlab qolish va yoshlarga singdirishning muhim omilidir.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun turizm faoliyati madaniy qadriyatlarni tarqatishda, ularning tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirishda, har tomonlama rivojlangan insonni tarbiyalashda o'ziga xos tarbiyalovchi funksiyani bajaradi.

Turizm faoliyati bo'lajak o'qituvchilar uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- axborot berish (informativ) funksiyasi. Har bir talaba o'zini qurshab turgan moddiy dunyo va ijtimoiy muhitni o'zlashtirib hamda anglab borish natijasida muayyan darajadagi bilim, tajriba, malaka va ko'nikmalarga ega bo'la boradi. Ularni boshqalarga, o'zidan keyin kelayotgan avlodlarga yetkazib berish ehtiyojiga ega bo'ladi.

- tartibga solish (regulyativ) funksiyasi. Talabalarining o'zga jamiyat va boshqa xalqlarga nisbatan bo'lgan munosabatlari, uni mustahkamlovchi va tarqatuvchi o'zga huquq hamda mafkura, axloq, san'at hamda din ta'sirida tartibga solib turadi. Kishilarning o'zga atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlari natijasida axloqiy, estetik, diniy, siyosiy va huquqiy meyorlar vujudga keladi.

- baholash funksiyasi. Ushbu funksiya tufayli talabalar o'zi mansub bo'lmagan sivilizatsiyalar tomonidan yaratilgan eng nodir, eng qimmatli madaniy boyliklar, ularni yaratish jarayonidagi barqarorlik, davomiylik va vorislikni anglab yetadi. Bu esa boshqa davlatlarning madaniyatini o'rganish, boshqa hududlar va mamlakatlar o'rtasida madaniyatlararo muloqot vazifasini bajarish, madaniyat sohasidagi yutuqlarga ko'maklashish, kognitiv jarayonlarni faollashtirish hamda shaxsiy muloqotni uyg'unlashtirish demakdir.

- gnoseologik funksiyasi. Turizm asosan ilmiy bilishning umumiy xossalari, qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Turizmning gnoseologik vazifasi shundan iboratki, inson sayohat qilish orqali joylarning nomlari, tarixiy kelib chiqishi, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishi, xaritalarni o'qishi, umuman olganda, dunyo to'g'risidagi bilim va tajribalarni ortib borishiga xizmat qiladi. Insonni ijtimoiy-madaniy hayotga moslashish imkonini beradi.

- aksiologik funksiyasi. Turizm faoliyati turli millat va elatlarning o'ziga xos an'analarini qadrlashga, hurmat qilishga, turli madaniy xilma-xillikni tolerant tafakkur asosida qabul qilishga o'rgatadi.

XULOSA

Mohiyatiga ko'ra turizm insonga estetik-hissiy ta'sir ko'rsatishi orqali bilishda axborotlarning ko'payishiga qaratilgandir. Bu ma'noda turizmni gnoseologik amaliyot deb atash mumkin. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni ham turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularda ijtimoiylashuvni tezlashtirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun turizm faoliyati ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan turizm, talabalarda empirik bilimlarni ilmiy bilimlarga aylanish jarayonini hosil qiladi. Ilmiy bilimlarni o'rganishning soddalashtirilgan modeli bilan tanishtirish zamonaviy turizmning asosiy vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. – Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. – 230p.
2. Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.
3. Насруллаева П.Н. Музейное дело в системе туризма. Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 6
4. Уринова Н. М. и др. Педагогика университетларида бўлажак ўқитувчиларни музей педагогикаси фаолиятига тайёрлаш бўйича хорижий тажрибалар // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2, № 7.
5. Marayimova. K. I. The role of museums in the development of tourism // Academia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 121-124
6. Marayimova K.I. A system for training future teachers in tourism through museum pedagogy // Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 3 (148). – С. 56-58.